

O‘ZGARISHLAR DAVRI: 2017–2025 YILLARDA MARKAZIY OSIYO VA
O‘ZBEKISTON

Xurramov Suhrob Yodgor o‘g‘li
Abdullayeva Iroda Azamatovna
Termiz davlat pedagogika instituti talabalari
Qulboshev Sirojiddin Jumayevich
Ilmiy rahbar: PhD

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 2017–2025 yillarda Markaziy Osiyo va O‘zbekistonda yuz bergan siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, O‘zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosati natijasida mintaqada o‘zaro ishonch muhitining mustahkamlanishi, hamkorlik aloqalarining kengayishi hamda integratsion jarayonlarning faollashuvi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, siyosiy islohotlar, iqtisodiy modernizatsiya, tashqi siyosat, mintaqaviy hamkorlik, integratsiya jarayonlari, geosiyosat, barqaror rivojlanish, Yangi O‘zbekiston.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab Markaziy Osiyo mintaqasi bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishni tashqi siyosatning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi.

Bu yondashuv bejiz emas edi, chunki mintaqada davlatlari tarixiy, madaniy va geografik jihatdan o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, ularning barqaror rivoji ko‘p jihatdan bir-biriga hamkorlik darajasiga bog‘liq hisoblanadi. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi davrda O‘zbekiston tashqi siyosatida yangi ruh, ochiqlik va pragmatik yondashuv yaqqol namoyon bo‘ldi.

Mamlakat rahbariyati tomonidan ilgari surilgan konstruktiv va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillari nafaqat ikki tomonlama aloqalarni mustahkamladi, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida o‘zaro ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qildi. Natijada ilgari murakkab sanalgan masalalar - chegaralar, suv resurslari, savdo va transport yo‘laklari bo‘yicha ham ijobiy siljishlar kuzatildi. Mazkur jarayonni oddiy diplomatik aloqalar bilan cheklab bo‘lmaydi.

Chunki u keng qamrovli integratsion bosqichni boshlab berdi. Siyosiy muloqot faollashdi, iqtisodiy hamkorlik yangi darajaga ko‘tarildi, madaniy-gumanitar aloqalar esa xalqlar o‘rtasidagi tarixiy yaqinlikni yanada mustahkamladi.

Ayniqsa, savdo hajmining oshishi, qo‘shma loyihalarning yo‘lga qo‘yilishi va transport-kommunikatsiya tizimining rivojlanishi bu hamkorlikning amaliy natijalarini yaqqol ko‘rsatmoqda. Ma’lumki, O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy vazifalaridan biri - o‘z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev qo‘shnilarimiz - Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stona, yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni

rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo‘nalish sifatida belgilab berdi. 2017-yilda Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasi minbaridan turib Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini muntazam o‘tkazishni taklif qilgandi. Ushbu tashabbus mintaqadagi barcha davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Birinchi sammit 2018-yilning mart oyida Qozog‘iston poytaxti Nur-Sulton (hozirda Astana)da, ikkinchisi - 2019-yilning noyabrida Toshkentda, uchinchisi - 2021-yilning avgustida Turkmanistonning “Avaza” turistik zonasida bo‘lib o‘tgandi. 2020-yil davomida tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat bo‘yicha davlat idoralari tomonidan 23 ta oliy darajada va 12 ta yuqori darajada tashrif va turli tadbirlar amalga oshirildi. Bu jarayonda “Xalq diplomatiyasi” amalda juda faol bo‘lgani kuzatildi. Xususan, xalq vakillari - olimlar va rassomlar, madaniyat va din arboblari, ishbilarmonlar va yoshlar, turizm va sport tashkilotlari, jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar ishtirokida 90 dan ortiq turli uchrashuv, anjuman, videokonfrensiya va boshqa shu kabi tadbirlar o‘tkazildi. 2017-2019-yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi yillik o‘rtacha 50 foizdan ko‘proqqa o‘sib, 5,2 milliard dollarga yetgan. 2020-yil natijalariga ko‘ra esa, global pandemiya sharoitiga qaramay, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasining umumiy hajmi 5 milliard dollarni tashkil etdi. Jumladan, O‘zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida Markaziy Osiyo davlatlarining ulushi 2019-yildagi 12,4 foizdan, 2020-yilda 13,6 foizga oshgan. O‘zbekistonning mintaqadagi umumiy tashqi savdo aylanmasida esa Qozog‘istonning ulushi 61 foiz, Qirg‘iziston - 18,2 foiz, Turkmaniston - 10,6 foiz va Tojikistonning ulushi 10,2 foizni tashkil etdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarning mana shunday yaxshilanishi, umuman aytganda, mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yordam berdi. Xususan, 2017-2020-yillar oralig‘ida O‘zbekiston va mintaqqa mamlakatlari o‘rtasida 300 dan ortiq shartnoma, shuningdek, qariyb 75 milliard dollarga teng shartnoma va bitimlar imzolangan. Shuningdek, 2017-2020-yillar davomida O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan ochiq, konstruktiv siyosat olib bordi. Agar besh yil oldin O‘zbekiston – Qirg‘iziston davlat chegarasini kuniga 200-300 kishi kesib o‘tgan bo‘lsa, global pandemiya ta’sirida joriy qilingan cheklovlarga qadar bu ko‘rsatkich kuniga 30 ming kishiga yetgan. O‘zbekiston – Tojikiston chegarasini esa kuniga 20 ming fuqaro kesib o‘tgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar sezilarli darajada mustahkamlanib, iqtisodiy va madaniy hamkorlikning yangi istiqbollarini ochmoqda. 2022-yil 22-dekabr kuni Qozog‘iston Prezidentining O‘zbekistonga davlat tashrifi chog‘ida ittifoqchilik munosabatlari va davlat chegarasini demarkatsiya qilish bo‘yicha muhim shartnomalar imzolangan aloqalarimiz rivojida muhim qadam bo‘ldi. Hukumat tuzilmalari darajasida 15 ta hujjat, jumladan, Markaziy Osiyo sanoat kooperatsiyasi xalqaro markazini tashkil etish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ta’lim sohalarida hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar imzolandi.

Hozirgi vaqtda o‘zbek-qirg‘iz hamkorligi salmoqli shartnomaviy-huquqiy asosga ega bo‘lib, u 180 dan ziyod kelishuv va bitimlardan iborat. Ushbu hujjatlar savdo, iqtisodiyot, ilm-fan, turizm, transport, ma’daniyat va boshqa yo‘nalishlarni qamrab oladi. Shu jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi va Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida Abadiy do‘stlik

to'g'risida"gi shartnoma, "O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida strategik sheriklik, do'stlik, ahil qo'shnichilik hamda ishonchni mustahkamlash to'g'risida"gi Deklaratsiya kabi muhim hujjatlar ikkitomonlama munosabatlarni yuksak darajada rivojlanishi uchun normativ-huquqiy sharoit yaratmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil sentyabr oyida Qirg'iziston Respublikasiga davlat tashrifi, ikkitomonlama munosabatlarda yangi sahifa ochilishiga katta turtki bo'ldi. Ushbu tashrif doirasida imzolangan "O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida o'zbek-qirg'iz Davlat chegarasi to'g'risida"gi shartnoma natijasida davlat chegara chiziqlarining 85 foizi bo'yicha muhim kelishuvlarga erishildi. Bugungi kunda O'zbekiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining belgilanmagan hududlar bo'yicha o'zaro hamkorlik jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Imzolangan shartnomaga muvofiq, "Do'stlik" (Andijon viloyati), "Kosonsoy" va "Baymoq" (Namangan viloyati) nazorat-o'tkazish punktlari ishi qayta tiklandi. Qirg'iziston fuqarolari uchun "Qadamjoy" va "Vodil" (Farg'ona viloyati) punktlari orqali chegaradan o'tish tartibi soddalashtirildi. Bunning natijasida ikki mamlakat fuqarolari hech qanday takliflarsiz chegarani soddalashtirilgan tartibda kesib o'tishmoqda. Bugungi kunda ikki davlat fuqarolariga qulaylik yaratish maqsadida o'zbek-qirg'iz chegarasida jami 16 ta o'tkazish punkti faoliyat olib bormoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi strategik hamkorlikning huquqiy asosi sifatida qator tarixiy hujjatlar imzolandi. Zero, ikki do'st davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish, hamkorlikning yangi yo'nalishlari va istiqbollarini belgilagan holda o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish borasida tarixiy ishlar amalga oshirildi. Birgina 2017 yilda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 177 million dollarni tashkil qilib, bu o'tgan davrdagiga nisbatan 3 barobar ko'p demakdir. Turkmaniston Prezidentining 2018 yil 23-24 aprel kunlari O'zbekistonga davlat tashrifi ham do'stlik munosabatlari va strategik sheriklikni rivojlantirishda muhim voqea bo'ldi. Tashrif davomida Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuxamedovning Qo'shma bayonoti imzolandi. Bundan tashqari, tashrif davomida ikki davlat o'rtasida 17 ta hukumatlararo idoralararo hujjatlar, shuningdek, umumiy qiymati 250 million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan savdo shartnomalari va bitimlari paketi imzolandi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar kabi qator sohalardagi aloqalarni kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar yo'li ochilmoqda. Shu munosabat bilan, yuzaga keladigan voqeliklarni anglash, hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va aniq natijalarga erishish o'ta muhim sanaladi. Jumladan, 2016-yil sentyabr oyidan buyon ikki mamlakat tashqi ishlar vazirlarining 23 marotaba uchrashuvi bo'lib o'tdi. O'zbekiston – Tojikiston hamkorligining huquqiy asosini shu paytgacha imzolangan turli darajadagi 165 ta hujjat tashkil etadi. O'zbekiston 2017-2019-yillar uchun BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashiga Tojikiston nomzodini qo'llab-quvvatlagan. So'nggi besh yilda mamlakatlarimiz o'rtasida savdo-

iqtisodiy aloqalar izchil rivojlanib, jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Ikki mamlakat rahbarlarining izchil sa'y-harakatlari va o'zaro savdo hajmini oshirish bo'yicha belgilagan vazifalari samarasida 2018-yilda umumiy qiymati 202,5 million dollarlik mahsulot yetkazib berish bo'yicha 92 ta bitim va shartnomalar imzolangan edi. Jumladan, O'zbekiston tovarlari eksporti uchun qariyb 162,2 million dollarlik 83 ta shartnoma va 40,3 million dollarlik 5 ta import shartnomalari qabul qilindi. 2020-yilgi O'zbekiston – Tojikiston biznes forumi yakunlari bo'yicha qiymati 711,5 million dollarga teng 306 hujjat imzolangan bo'lsa, shundan 516,13 million dollarlik 279 ta savdo shartnomasi va 195,4 million dollarlik 27 ta investitsiya loyihalari tasdiqlandi. Natijada 2020-yilda 2016-yilga nisbatan o'zaro savdo aylanmasi hajmi qariyb 500 million dollardan oshgani qayd etildi. Bundan tashqari, 2018-yilda “O'zbekiston va Tojikiston fuqarolarining o'zaro safarlari to'g'risidagi” bitim imzolangani tufayli mamlakatlarimiz o'rtasida viza rejimi bekor qilindi va aynan shu yili 17 ta nazorat punktlari ochildi. Mazkur ishlar ikki tomonlama munosabatlar rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Xulosa o'rnida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Tojikiston davlat rahbarlari bilan olib borayotgan o'zaro manfaatli va istiqbolga yo'naltirilgan kelishuvlari yaqin yillarda o'zining ijobiy natijalarini namoyon etib, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni yangi, sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqishi kutilmoqda. Bugungi kunda mintaqada tizimli muloqotni yo'lga qo'yish, barcha tomonlar manfaatlarini muvozanatli tarzda hisobga olish hamda o'zaro kelishuvlarga erishishda oqilona murosaga tayanish tamoyillari keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Shu bilan birga, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, xavfsizlikni ta'minlash, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqaror taraqqiyotga erishish yo'lida amalga oshirilayotgan qo'shma sa'y-harakatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham ijobiy baholanmoqda. Mazkur tashabbuslar nafaqat siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga, balki madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda. Natijada, davlatlar o'rtasida yaxshi qo'shnichilik va o'zaro ishonch muhitini yanada mustahkamlashda “xalq diplomatiyasi”ning imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy nutqlari va chiqishlari (www.president.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy materiallari (www.mfa.uz)
3. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi xalqaro shartnomalar va hujjatlar to'plami (1991–2020). – Toshkent: Adliya, 2021.
4. Safarov N. Transchegaraviy hamkorlik va mintaqaviy integratsiya. – Toshkent: Yangi asr, 2020.
5. Tursunov Q. O'zbekiston va qo'shni davlatlar bilan siyosiy-iqtisodiy hamkorlik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.